



TA'LIM JARAYONIDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ayubovna Shoir Fayzieva

*Guliston davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi v.b.dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Email: fayziyevashoira315@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, ularda intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonining psixologik jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchilarning ta'lim jarayonlarini tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilar uchun maxsus dasturlarning yaratilish tarixi, nazariyasi va tajribalari bayon etilgan. Bundan tashqari maqolada umumta'lim maktablari yuqori sinf iqtidorli o'quvchilari uchun jadallashtirilgan ta'lim tizimi asosida olib boriladigan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: iqtidor, intellekt, aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi, qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual ijodiy salohiyat, qobiliyat, iste'dod, qiziquvchanlik, yuqori imkoniyat, bilish jarayonlari, ta'lim, tarbiya, jadallashtirilgan ta'lim, maxsus dastur, shaxs xususiyatlari.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF WORKING WITH GIFTED STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article provides information on the psychological aspects of the process of working with gifted students in the educational process, the development of their intellectual and creative potential. The article describes the issues of organizing and improving the educational processes of gifted students studying in general secondary schools. Also, the history, theory and experiences of the creation of special programs for gifted students are described. In addition, the article also provides recommendations for classes and extracurricular activities conducted on the basis of the accelerated education system for gifted students of high schools of general education.



Keywords: talent, intellect, mental development, self-awareness, ability to express, intellectual creative potential, ability, talent, curiosity, high potential, cognitive processes, education, upbringing, accelerated education, special program, personality traits.

Kirish. Iqtidorli o'quvchi bilan qanday ishlash kerak? Bu — ko'pchilik o'qituvchilar oldida muammo bo'lib kelayotgan savol. Har bir sinfda iqtidorli bolalar bor. U qanday bola? Iqtidorli bola — ziyrak, qiziqqon, xotirasi kuchli, e'tiborli, mantiqiy fikrlaydigan, ko'p savol berib, bilishga intilayotgan, turli masalalarni tez va oson yecha oladigan o'quvchidir. Aqliy sog'lom bolalarni oddiy, iqtidorli va o'ta iqtidorli guruhlariga ajratish mumkin.

2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturda ijodkor va iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish, o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha yagona elektron platforma yaratish hamda har bir 5 — 11-sinf o'quvchisi uchun elektron "Ish daftari"ni joriy etish belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun iqtidorli bolalar bilan ishlashning maxsus dasturlari yaratilmoqda, ko'pgina davlatlarda differensial ta'lim (o'quvchining o'zlashtira olish imkoniyatiga qarab ta'limni tashkil etish) yo'lga qo'yilgan. Kompleks-o'quv dasturlari iqtidorli bolalarning erkin ijod qilishlari uchun imkon yaratmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) da bunday bolalar uchun alohida kurslar tashkil qilinib, o'qituvchi va o'quvchi orasida tuzilgan individual "o'quv shartnoma"lari vaqtni tejashga, iqtidorli bolalar uchun esa individual tarzda faoliyat yuritishga keng imkon bermoqda. Psixologik tadqiqot va maxsus kuzatishlarning ko'rsatishicha, yuqori aqliy qobiliyatlarga ega bolalar, aksariyat hollarda, oddiy bolalarga nisbatan birmuncha muvaffaqiyatli bo'lishadi: ta'limni o'zlashtirishlarida muammolar kuzatilmaydi, tengdoshlari bilan yaxshi muloqotda bo'lishadi, yangi sharoitga tezda moslashishadi. Bunda yoshligidan singib ketgan qiziqish va mayllari bolaning kasb tanlashi va muvaffaqiyatlarga erishishida puxta zamin bo'lib xizmat qiladi. Bunday bolalarning ta'limni oson o'zlashtirishidagi yuqori imkoniyatlari inobatga olinganligi va ijodiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilmaganligi sababli ayrim muammolar tug'ilishi mumkin [3].



Aksariyat ota-onalar, shuningdek, pedagoglar ham ba'zan turli xil testlarga sidqidildan ishonishadi, ular iste'dodni kashf qilish imkonini beradi, deb bilishadi. Testlardan keng foydalanadilar hamda so'ngra bolalarni osongina, hatto yuzakilarcha "iqtidorli" va "iqtidorsiz"ga ajratib qo'yishadi. Shuni bilish va esda tutish kerakki, qandaydir bir metodika yordamida buni amalga oshirish mumkin emas, negaki, bu kompleks, juda uzoq vaqt davom etadigan, eng asosiysi, alohida professional yetuklikni, sezgirlikni, nazokatlikni talab etadigan jarayondir. Bugungi kunda amalda bo'lgan favqulodda qobiliyatga ega bolalarni kashf qilish diagnostika tizimi — bu juda murakkab tizim bo'lib, ba'zan mutaxassislarining o'zlari uchun ham ziddiyatli jarayondir. Ko'plab mutaxassislar shundan haqqoniylik bilan ta'kidlaydilar ki, taxminlardagi ko'p sonli xatoliklar nafaqat takomillashmagan testlar bilan, balki, iqtidor fenomenining o'zining murakkabligi va ko'pqirraliligi bilan izohlanadi [4].

Oddiy kishilar tushunchasida iqtidor testi faqatgina aqliy salohiyatni aniqlovchi IQ testlari bilan assotsiatsiyalanadi. Har bir iste'dod uchun har qanday holatda, aytib o'tganimizdek, turli ko'rinishdagi testlar mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalganlari — Ketell, Aitxauer, Ravenning intellektni aniqlash testlari, Gilford, Garrensning ijodiy salohiyatini aniqlash testlari, D.Bogoyavlenskayaning "kreativ maydon" metodi, Ye.Tunik testi, Jonson so'rovnomasi va boshqa ko'plab testlar butun psixologlar tomonidan keng foydalanilmoqda. Ularni qo'llashning o'ziga xos nozik tomonlari ham mavjud. Masalan, intellektual iqtidor universal shaxsiy xarakteristika sifatida ko'rib chiqilmasligi kerak. Taniqli amerikalik olim P.Torrens o'z o'quvchilarini kuzatar ekan, shunday xulosaga keldiki, ijodiy faoliyatda (gap ijodkorlik iqtidori haqida bormoqda) yaxshi o'qiydigan bolalar ham, IQ yuqori darajada bo'lgan bolalar ham muvaffaqiyat qozonavermaydilar. Aniqrog'i, bu shartlar ishtirok etishi mumkin, ammo yagona shart bo'la olmaydi. Ijod uchun boshqa nimadir zarur. Ba'zi amaliyotchilar fikricha, boshqa amaliy va ob'ektiv metodlar ham bor. Masalan, kuzatuv, bolani hech narsa qilmasdan, faqatgina uzoq vaqt kuzatsangiz qandaydir individualliklarini farqlaysiz. Uning iste'dodliligini tahlil qilish uchun faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan qandaydir xususiyatlarini namoyon qilish yoki har tomonlama kuzatuv yo'li bilan olingan yaxlit xarakteristika zarur. Kuzatuvning afzalligi yana shundan iboratki, u tabiiy sharoitlarda olib borilishi, bu esa kuzatuvchiga yanada nozik jihatlarni payqash imkonini berishi



mumkin. Diagnostikada tabiiy eksperimentning ham takrorlanmas o‘rni bor, masalan, odatiy maktab darsida yoki to‘garak mashg‘ulotlarida tadqiqot uchun zarur vaziyat yaratilganida, bu bola uchun mutlaqo odatiy hol bo‘lishi hamda u o‘zining maxsus kuzatilayotganini sezmasligi ham mumkin. bunday holatda asosiysi va eng muhimi, bola iqtidori belgilarini kuzatish va rivojlanishini o‘rganish zarurligi g‘oyasi hisoblanadi.

Biografik metod iste’dodni namoyon qilish va o‘rganishda katta qiziqish uyg‘otadi. Hayot yo‘lini o‘rganish ayni damda sinovdan o‘tayotgan xususiyatlarni tushuntirishga samaraliroq yondashuv bo‘lgani singari kelajagini taxmin qilish usuli sifatida ham keng tarqalgan. Biografik metodlar bevosita bolaga mo‘ljallangan, ota-onalar, tarbiyachilar, pedagoglar uchun alohida so‘rovnomalar, shuningdek, ular bilan suhbat va intervyulardan iborat bo‘lishi mumkin. Ota-onalarga beriladigan savollar taxminan quyidagi tarzda bo‘lishi mumkin: “Bola qandaydir bir buyumdan g‘ayriodatiy tarzda foydalangan holat bo‘lganmi?”, “Bolangiz o‘z o‘yinlari, ermaklarini o‘ylab topadimi?”

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, iqtidorli o‘quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda katta imkoniyatlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

I. Dars mashg‘uloti jarayonida o‘quvchi fan doirasida bilim va ko‘nikma va ma’lum ma’noda malakaga ega bo‘ladi. O‘quvchining bunday ehtiyojlari namunali tashkillashtirilgan dars mashg‘ulotlari va ta’lim dasturlari orqali qondiriladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil olayotgan yuqori sinf iqtidorli o‘quvchilarining ta’limini tashkil etish va rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan ishlar kundan – kunga ko‘payib bormoqda, lekin, yuqorida aytilganidek, ularning ayrimlaridagina iqtidorli o‘quvchilarning talab va ehtiyojlariga mos keladigan maxsus ta’lim dasturlari mavjud.

Muammoning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib adabiyot fani bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar uchun bilish jarayonlarini rivojlantirish asosiga tuzilgan maxsus dastur ishlab chiqildi [5]. Bu dastur maktabning metod birlashma yig‘ilishida muhokama qililib, ma’qullanishi va rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi zarur. Dasturni ishlab chiqishda



maktablarning adabiyot fani bo'yicha yillik o'quv rejasi maxsus dastur asosida kengaytirildi. Dars mashg'ulotlari uchun adabiyot fanidan umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi asosida rejadagi mavzular va qo'shimcha kiritilgan mavzular (8-sinfda 10 ta mavzu, 9-sinfda 12 ta mavzu) mazmunan yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari (mashg'ulotlarda foydalanilgan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining mazmuni o'quv-uslubiy qo'llanmada keltirilgan [5] asosida chuqurlashtirildi va boyitildi.

Binobarin, o'quvchilarda badiiy adabiyotni o'qish va tushunish malakasini shakllantirish – didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Chunki, o'quvchining badiiyatni his qilish holati, uning ruhiyati bilan bog'lansa, badiiy asarni o'qib o'rganish jarayonida undan hayotiy xulosalar chiqarish, ma'naviy saboq olishga, ong va hissiyotining ta'lim maqsadiga ko'ra rivojlanishi didaktika bilan bog'lanadi; o'quvchining adabiy tahlil talablarini o'rganishi, adabiy asarning qurilishi va janriga oid bilimlarni o'zlashtirib, badiiy ijod qonuniyatlari talablariga moc tarzda bu bilimlarga tayanib, amaliy ish yuritishi, ijodiy fikrlashi – metodika bilan bog'lanadi.

Bir qancha tadqiqot ishlarida ta'lim dasturining samaradorligi tegishli aqliy saviyadagi bolalarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi [6, 7, 8].

Shu maqsaddan ham taklif etilgan ta'lim dasturida adabiyot fani bo'yicha maxsus metodikalar asosida saralangan o'quvchilarning fan sohasidagi mashg'ulotlarni o'zlashtira olish va bajara olish ehtiyoji hamda imkoniyatlari inobatga olinadi.

Aksariyat tadqiqotchilar iqtidorli o'quvchilar ta'limining u yoki bu aniq vazifalarining ustunlik qilishiga qarab, dasturlarni turkumlarga ajratishgan. Rivojlantiruvchi dasturlar iqtidorli o'quvchilarning nafaqat yuqori bilish ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelishi, balki ularning mustaqillikka bo'lgan intilishlarini ham qondirish imkonini yuzaga chiqarishi kerak. Bunda iqtidorli bolalar uchun ta'lim jarayonining avval aytib o'tilgan ro'yxatda qayd qilingan ko'plab talablari ham inobatga olinadi. Odatda, bunday dasturlar "ochiq turdagi" muammolarni o'rganishni ko'zda tutadi, ular yangi g'oyalarni ilgari surishni rag'batlantiradi, usul va ko'nikmalarni rivojlantiradi, turli-tuman nostandart materiallardan



foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi, bolalarni o‘z ishlarini turlicha mezonlar yordamida baholashga o‘rgatadi.

XULOSA

Demak, yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun o‘quvchilar ijodiy faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirlarni belgilab ularni ikki guruhga ajratamiz:

1. “Intellektuallar” guruhi

- 1) “Zakovat”, “Iqtidor”, “Imkon” kabi intellektual o‘yinlarni o‘tkazish;
- 2) “Eng yaxshi tarixchi, matematik, dasturlovchi, fizik, biolog, filolog ... va hokazo” nomlarda tanlovlar o‘tkazish;
- 3) Ilmiy yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etish, ilmiy anjumanlar o‘tkazish;
- 4) “Yosh dasturlovchilar”, “Yosh astronomlar”, “Yosh ixtirochilar”, “Yosh konstruktorlar”, “Yosh texniklar”, “Yosh radiotexniklar”, “Yosh iqtisodchilar” kabi klublarni tuzish.

2. “Ijodkor va iste‘dodli yoshlar” guruhi

- 1) “Eng yaxshi she‘r, rasm, foto, kashta, so‘zana va hokazo” nomlarda tanlovlar o‘tkazish;
- 2) “Quvnoqlar va Zukkolar” klublari jamoalari bellashuvlarini o‘tkazish;
- 3) “Eng yaxshi hamshira, hisobchi, oshpaz, chilangar, suvchi, hosilot, terimchi va hokazo” nomlarda tanlovlar o‘tkazish;
- 4) “Yosh musavvir”, “Yosh musiqashunos”, “Yosh kitobxon”, “Yosh ijodkor” kabi klublarni tuzish;
- 5) Ijodkor yoshlarning ijodiy kechalari va ko‘rgazmalarini tashkil etish;
- 6) Umumxalq bayramlari, xalqaro va milliy bayram kunlari munosabati bilan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish.



- 7) Buyuk mutafakkirlarimizning tavallud kunlariga bag'ishlangan bayram kechalarini sahnaviy ko'rinishlarini uyushtirish;
- 8) Mustaqil ravishda biror bir mavzuga bag'ishlangan badiiy kompozitsiyalar tayyorlash;
- 9) Badiiy havaskorlik to'garaklarinining ishini jonlantirish va musobaqa tariqasida o'tkazilishini tashkil etish;
- 10) Ijodiy ishlar majmuasini ommalashtirish.

References

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. -T.:O'qituvchi, 1997.
2. Do'stmuhamedova SH.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent:” O'qituvchi”, 2013
3. Sh.Fayzieva. Social and Psychological Aspects of Preventing and Eliminating Harassment and Violence Against Women in the Family. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 3 MARCH 2024 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
4. Sh.Fayzieva Positive-psychological Characteristics of Addressing Harassment and Violence Against Women in the Family: Empowerment, Resilience, and Healing. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, Vol. 33 (2024)
5. Rajabov O.X. Adabiyot fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan darsdan tashqari olib boriladigan to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan metodik tavsiyalar (8-9 sinflar uchun) // O'quv-uslubiy nashr. – T.: “Mumtoz so'z”. 2011. – B. 64.
6. Лейтес Н.С. Психология одаренности детей и подростков / Под ред. Н. С. Лейтеса. — М: Изд. Центр Академия, 1996. — 416 с.
7. Шумакова Н.Б. Междисциплинарный подход к обучению одаренных детей // Вопросы психологии. – 1996. - № 3. – С. 34-43.



8. Gifted Development at Schools: Research and Practice. Ed. By Laszlo Ba-logh, Laszlo Toth. University of Debrecen. Department of Educational and Psychology. — 2001. — 236 p.

